

MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA EKOLOGIK TARBIYANING O'RNI

Qoblanova Nasiba Erkinaliyevna

Toshkent viloyati Angren shahar

Maktabgacha va maktab ta'lim bo'limi tasarrufidagi

39-sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi

+998949226262

koblanovanasiba2@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.8115537>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Maktabgacha ta'lim tizimida ekologik tarbiyaning o'rni, zamon talablari asosida bolalarga tarbiya berish va atrof – muhitni asrab – avaylash haqida batafsil yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Atrof-muhit, ekologik bilim, ta'lim-tarbiya, tabiiy boyliklar, atmosfera, ekskursiya, mehnat, o'yinlar, kundalik.

Hozirgi kunda ta'lim tizimiga berilayotga e'tibor natijasida Maktabgacha ta'lim tizimi ham bosqichma-bosqich rivojlanib bormoqda. Ta'lim sohasiga zamonaviy texnologiyalarning kirib kelishi bolalarning bilim olish jarayonini yanada oson va qiziqarli bo'lishini, o'zlashtirish darajasini oshishini ta'minlamoqda. Prezidentimizning "Maktabgacha ta'lim yo'nalishini tizimli rivojlantirish bo'yicha aniq davlat dasturlari qabul qilinadi, bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi 2 barobarga oshirilib 100 foyizga yetkaziladi" 1 -deb aytgan so'zlari bu qaratilayotgan e'tiborning yaqqol isbotidir. Bugungi kunda insoniyatni xavf ostida qoldirayotgan hodisalardan biri ekologik vaziyat hisoblanib, jamiyatning katta tashvish uyg'otmoqda. Insonning tabiiy boyliklardan haddan tashqari oshiqcha foydalanishi oqibatida, o'rmonlar siyraklashib, o'simlik va hayvonlar turlari kamayishi, foydali qazilma boyliklari tugab borayotganligi, shuningdek, suv havzalari va atmosfera havosining ifloslanishi natijasida sayyoramizning qiyofasi o'zgarib bormoqda. Bularning barcha insonlarning tabiiy boyliklardan oqilona foydalanmaslik oqibati hisoblanadi. Shuning uchun ham ekologik tarbiya berishni maktabgacha yosh davridan boshlash lozim. Ekologik bilim - bu tirik tabiatning tuzilishi, rivojlanishi, o'zgarishi, yer yuzidagi tirik jonzoatlarning holati, ularning birbirilariva atrof-muhit o'rtasida bo'lib turadigan munosabatlarni, tabiiy boyliklarning son va sifatini, hajmini, xillarini hamda ularni saqlash va tejankorlik bilan foydalanish yo'llarini o'zlashtirishdan iboratdir. Bolalarga ekologik ta'lim va tarbiya berish ularni ilk marotaba tabiatga qadam qo'ygan vaqtdan boshlab, butun hayoti davomida tabiatdan ongli, oqilona ravishda foydalanishga, xalqimizning tabiatga hurmat va e'tibor bilan qaraydigan urf-odatlarini tarbiyalash, tabiiy boyliklarni ko'paytirish va ulardan to'g'ri foydalanish, bog'urog'lar, gulzorlar tashkil qilishga, daraxtlarni, o'simlik va hayvonlarni asrashga, ularga ozor bermaslikka o'rgatish, bolalarning qalbida tabiatga, uni asrashga nisbatan yaxshi xislatlar uyg'otishdan iboratdir. Ekologik tarbiyaning bosh maqsadi maktabgacha yoshdagi bolalarda atrof-muhit va uning muammolari haqida ongli munosabatni ihamda ular bo'yicha optimal yechimlar topish to'g'risidagi bilim, ko'nikmava malakalarni shakllantirishdan iborat. Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun bir qator vazifalarni hal qilishga to'g'ri keladi. 1. Maktabgacha yoshdagi bolalarimizga ekologik tarbiya berishda ularning yashab turgan joyi (tabiati) va boyliklarini tejab-tergashga, ularni ongli ravishda muhofaza qilishga o'rgatish. 2. Ekologik madaniyatni shakllantirish. Bu, eng avvalo, oiladan boshlanmog'i lozim. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirishning quyidagi yo'llari mavjud:

- Mashg'ulotlar o'tkazish;
- Ekskursiya;
- Mehnat;
- O'yinlar;
- Kundalik hayot ishlari.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni tabiat bilan tanishtirishda ta'lim berishning asosiy usullaridan biri ekskursiya hisoblanadi. Ekskursiya jarayonida bolalar tabiat to'g'risidagi aniq tasavvurga ko'rish, sezish, eshitish bilan idrok etish orqali ega bo'ladilar. Ekskursiya jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiat, undagi qonuniyatlar to'g'risida realistik tasavvurlar hosil bo'ladi. Bu jarayon orqali o'rganilgan tushunchalar keyinchalik bolalar egallaydigan ilmiy bilimlarning asosini tashkil etib, maktabda o'rganiladigan tabiiy fanlarni o'zlashtirib olishni osonlashtiradi. Tabiat haqidagi bilimlar bolalarga o'z vaqtida o'rgatilmasa, ularning tabiatdan noto'g'ri foydalanishiga olib keladi. Bundan tashqari "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi asosida tashkil qilinadigan 5 ta rivojlantiruvchi markazlarning biri hisoblangan "Ilm-fan va tabiat" markazi ham bolalarning tabiat haqidagi bilimlarini oshirish uchun mo'ljallangan. Ilm-fan va tabiat markazida tajriba sinov maydonchasida o'tkazilayotgan tajribalar bolalarda qiziqish uyg'otadi va ularni yangi ixtirolar qilishga undaydi. Bu markaz bolalarni tabiat va undagi hodisalarni bilish uchun eng katta imkoniyat markazi hamdir. Markaz faoliyati to'g'ri tashkil etilsa bolalar tabiat haqidagi bilimlarning 90%ini o'zlashtiradi. Markaz nafaqat bolalarda balki pedagoglarda ham qiziqish uyg'otadi. Hayotimiz davomida ishlatiladigan narsalarni qayerdan kelganligini, ulardan nimalar olinganligi haqidagi ma'lumotlar bolalarning o'z qo'llari bilan urug'larni tuvaklarga sepish orqali unga suv qo'yishi va urug' unib chiqishi bola uchun juda qiziqarli holatlar sanaldi. Mashg'ulotlar turli shakllarda olib boriladi va bularning ayrimlarida boshlang'ich bilimlar shakllantiriladi. Buning uchun tarbiyachi kuzatish, rasmlarni ko'rish, hikoyalar, ertaklarni o'qishdan, multimedia vositalaridan foydalanadi. Boshqa mashg'ulotlarda esa bolalarning bilimlar aniqlanadi, kengaytiriladi va chuqurtlashtirilgan holda o'rgatiladi. Mashg'ulotlarda asosan didaktik o'yinlar, umumlashtiruvchi so'zlardan, bolalarning tabiatdagi amalga oshiradigan mehnatidan foydalaniladi. Barcha guruhlarda mashg'ulotlarni yanada yaxshi natija berishi va qiziqarli muhitni tashkil qilish uchun sayrlardan foydalaniladi. Didaktik o'yin ta'limning asosiy shakli hisoblanib, ta'limni yengil, tez va bolalar tomonidan oldindan mo'ljallanmagan bilimlarni o'zlashtirish shakliga aylanadi. Masalan, "Bu hayvonning nomi "Qizil kitob"ga kiritilganmi? Shu hayvonni top" o'yini. Tarbiyachi bolalarni doira shaklida turg'izib, hay von nomini aytadi va koptokni biror bolaga otadi. Bola koptokni ilib olib, "Qizil kitob"ga kirgan yoki kirmaganligini aytadi. Tabiat muhofazasiga doir o'yin mazmunini ishlab chiqishda odamlarning o'zaro munosabatlari, ularning tabiiy muhitga insonparvarlik, g'amxo'rlik bilan munosabatlari markaziy o'rinda turmog'i lozim. Shuning Bunday o'yinlardan foydalanishda bolalarning yoshini hisobga olish, ularning yoshiga mos holda o'yinlar ishlab chiqish lozim. Tarbiyachining bolalarga ekologik ta'lim va tarbiya berishda xalqimizning o'ziga xos milliy tarbiyasidan, ota-onalar bilan hamkorlikni tashkil qilishdan o'rinli foydalanishi yaxshi natija beradi. Milliy tarbiyamizda suvni isrof qilmaslik bilan birga, yer, havo, tuproq ham muqaddas hisoblanadi. Bolalarga ekologik ta'lim berishda har bir bolaga 1 ta gul tuvakni parvarishlash topshirig'ini berish ham eng samarali usullardandir. Bunda parvarishlash usullarini o'rgatib, ularni shu gulni qanday parvarish qilyotganini nazorat qilib

boriladi. Natijada bolalarda avvalambor mehr-shafqat tuyg'usi, tabiatga muhabbat shakllanadi. Bolalar gullarining qurib qolmasligi uchun qayg'uradi va auni parvarish qilishadi. Demak, maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik tarbiyani rivojlantirish orqali ularning tabiatga bo'lgan mehrini, shakllantirish va kelajakda tabiiy fanlarni o'zlashtirishi uchun poydevor yaratiladi. Bolalarga ekologik tarbiya berishda va zamonaviy usullardan foydalanish yaxshi samara beradi. Bundan tashqari tayyorlov guruh bolalariga ta'lim berishda zamonaviy texnologiyalardan biri VR lardan foydalanishni taklif qilgan bo'lardim. Bu texnologiya yurtimizda asta-sekinlik bilan rivojlanib bormoqda. Bu orqali bolalarning o'zlashtirishini yanada oshirish va qiziqarli, yangicha ta'lim jarayonini tashkil etish mumkin.

Shaxsning faolligi, uning jamoa faoliyatida ishtiroki uning o'zini-o'zi tarbiyalashga intilishi, o'zini-o'zi baholash darajasiga bog'liqdir. O'zi haqida keraksiz xech nimaga yaramaydigan sub'ekt deb o'ylaydigan odam taqdirini yaxshilash uchun istar-istamas kuchg'ayrat sarflaydi. Aksincha, o'zlarini yuqori baholaydigan odamlar ko'pincha juda qattiq ishlashga moyildirlar. Ular yaxshi ishlamaslikni o'zlariga munosib emas deb hisoblaydilar.

Demak, havo inson tanasi uchun eng muhim va zarur tabiat in'omidir. Havoga muntazam ravishda aralashib turadigan iflos chang o'pkada gaz almashuviga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu insonning sog'lig'ini bora-bora izdan chiqarib, turli-tuman xastaliklarni vujudga keltiradi. Tabiat shunday odil mo'jizaki, atrof-muhitni muvozanatga keltiradi. Chunonchi, chiqarilgan karbonat angidridni o'simliklar yutib, uni kislorodga aylantiradi, demak o'simliklar juvosi, 1arzniy ma'noda aytganda, havoni chang va karbonat angidrididan tozalab byeruvchi bebaho vositadir. Bunda inson o'z atrofini o'rab turgan iabiatni, uning o'simliklar dunyosini ko'z qorachig'iday asrabgina qolmay, uni boyitishi, qo'ldan kelganicha ko'proq daraxt ekishi, ko'kalamzorlashtirishga intilishi zarur degan xulosa chiqadi. Shuning uchun ota bobolarimiz daraxt ekish, bog'-rog' yaratishni savobli ish deb bilishgan. Bir tup mevali daraxt ekan kishining ikki dunyosi obod bo'ladi, deb bejiz aytishmagan. Ekologik ta'lim maktablar va bolalar bog'chalarida o'quv jarayonining muhim tarkibiy qismidir. O'qituvchilar o'zlarining ishlarini ushbu yo'nalishda ham o'quv faoliyati jarayonida, ham sinfdan tashqari ishlarda tashkil etishadi. Ekologik tarbiyaning shakllari, vositalari va usullari bolalarning yoshiga, qiziqish darajasi va tabiiy muhitga mos ravishda tanlanadi.

Ekologik ta'limning usullari, shakllari va vositalari bolalarning yoshiga bog'liq. Ekologik ta'lim bo'yicha ishlarni tashkil etishning etakchi shakli bu dars (). Eksperimentlar, tajribalar, kuzatishlar, loyihalar, adabiyotlardan foydalanish, suhbatlar o'qituvchi bevosita ta'lim faoliyatida foydalanadigan usullardir. Bundan tashqari, sinfdan tashqari ishlarda. Sinfdan tashqari mashg'ulotlarga ekskursiyalar, ta'til kunlari, tematik bo'sh vaqtlar, ota-onalar bilan ishlash kiradi. Hamma shakl va usullardan ham jamoaviy, ham alohida foydalanish mumkin.

References:

1. Cyberleninka.ru
2. Toshpo'latov, A. (2023). SHAXS PSIXODIAGNOSTIKASIDA PROYEKTIV METODIKALARDAN FOYDALANISH. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(5 Part 2), 170–178. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/16154> DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.8001510>
3. jdpu.uz

4. <https://nikifilinine.ru/uz/formy-i-metody-ekologicheskogo-vospitaniya-doshkolnikov-formy-i-metody-ekologicheskogo-obrazovaniya-v-d/>



INNOVATIVE
ACADEMY